



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 144 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики.....	137
<i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	



MILLIY TA'LIM TIZIMINI YANGILASH VA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODEL

Mengliqulova Maftuna Abdullayevna

Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish zarurati, strategik boshqaruvning ustuvor yo'nalishlari, ta'lim sifati va uzluksizligi, raqamlashtirish jarayonlari, innovatsion pedagogik yondashuvlar, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, shuningdek, monitoring va baholash mexanizmlarining o'zaro integratsiyasi yoritilgan. Shuningdek, ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilash, milliy va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish hamda ta'lim muassasalari boshqaruvida samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategik model komponentlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: milliy ta'lim tizimi, strategik model, ta'limni modernizatsiya qilish, ta'lim sifati, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta'lim, innovatsion pedagogika, strategik boshqaruv, monitoring va baholash, uzluksiz ta'lim.

Abstract: This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of a strategic model for modernizing and developing the national education system. The study substantiates the need for educational modernization and highlights the interconnection between strategic management priorities, education quality and continuity, digital transformation, innovative pedagogical approaches, capacity building of teaching staff, and monitoring and evaluation mechanisms. Particular attention is paid to renewing educational content based on a competency-based approach, integrating national and international experience, and enhancing the effectiveness of educational institution management.

Key words: national education system, strategic model, educational modernization, quality of education, competency-based approach, digital education, innovative pedagogy, strategic management, monitoring and evaluation, lifelong education.

Аннотация: В статье проводится научно-теоретический и практический анализ стратегической модели обновления и развития национальной системы образования. Обосновывается необходимость модернизации образовательной системы, раскрываются приоритетные направления стратегического управления, взаимосвязь качества и непрерывности образования, процессов цифровизации, инновационных педагогических подходов, повышения кадрового потенциала, а также механизмов мониторинга и оценки. Особое внимание уделяется обновлению содержания образования на основе компетентного подхода, интеграции национального и международного опыта и повышению эффективности управления образовательными учреждениями.

Ключевые слова: национальная система образования, стратегическая модель, модернизация образования, качество образования, компетентный подход, цифровое образование, инновационная педагогика, стратегическое управление, мониторинг и оценка, непрерывное образование.

KIRISH

Bugungi globallashuv, raqamlashtirish va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida ta'lim tizimi har qanday davlatning strategik taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish sur'atlari bevosita inson kapitali sifatiga bog'liq bo'lib, inson kapitali, avvalo, ta'lim tizimining samaradorligi orqali shakllanadi. Shu bois milliy ta'lim tizimini yangilash va izchil rivojlantirish masalasi bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki davlat boshqaruvi, ijtimoiy siyosat hamda milliy taraqqiyot nuqtayi nazaridan ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sharoitda ta'limga qo'yilayotgan talablarning kengayishi – shaxsda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, muammolarni hal etish, raqamli savodxonlik, kommunikativ kompetensiyalar va umrbod ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish zarurati – milliy ta'lim tizimini an'anaviy boshqaruv va mazmuniy yondashuvlar doirasida takomillashtirish yetarli emasligini ko'rsatadi.

Hozirgi bosqichda ta'lim tizimi oldida turgan vazifalar ko'p qirrali va murakkab xarakterga ega:

- Bir tomondan, ta'lim mazmunini zamon talablari asosida yangilash hamda uni fan-texnika yutuqlari va innovatsion iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish talab etiladi.
- Ikkinchi tomondan, ta'lim sifati hududlar, ta'lim bosqichlari va ijtimoiy qatlamlar kesimida teng va barqaror ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega.
- Uchinchi tomondan, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni izchil joriy etish, pedagog kadrlar salohiyatini muntazam oshirish, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish hamda monitoring va baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Mazkur yo'nalishlarning har biri alohida ahamiyat kasb etsa-da, ularni yagona, yaxlit va strategik model asosida uyg'unlashtirish ta'lim tizimining barqaror hamda yuqori natijador rivojlanishini ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli masalasi pedagogika, ta'lim menejmenti, ta'lim siyosati, innovatsion pedagogika hamda ta'lim sifati monitoringi yo'nalishlarining kesishgan nuqtasida shakllangan kompleks ilmiy muammo hisoblanadi. Shu sababli mazkur mavzuni yoritishda adabiyotlar tahlili tor doiradagi yondashuv bilan emas, balki ko'p komponentli va tizimli yondashuv asosida amalga oshirilishi zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud manbalarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) normativ-huquqiy va konseptual hujjatlar;
- 2) ta'limni modernizatsiya qilish hamda strategik boshqaruvga oid ilmiy adabiyotlar;
- 3) pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuvga doir tadqiqotlar;
- 4) ta'lim sifati, monitoring va baholash masalalariga bag'ishlangan manbalar;
- 5) raqamlashtirish va innovatsion ta'lim muhitiga oid ilmiy ishlanmalar.

Avvalo, milliy ta'lim tizimini yangilashning nazariy va amaliy asoslari normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topganini ta'kidlash lozim. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar, davlat ta'lim standartlari, ta'limni rivojlantirish konsepsiyalari, raqamli transformatsiyaga oid strategik hujjatlar hamda ta'lim sifati va uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan me'yoriy asoslar milliy ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsad va ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Mazkur hujjatlarda ta'limning uzluksizligi, sifat ko'rsatkichlarini oshirish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, pedagog kadrlar salohiyatini mustahkamlash, raqamli ta'lim vositalarini keng qo'llash, boshqaruvning ochiqligi va natijadorligini ta'minlash kabi tamoyillar ilgari suriladi. Shu jihatdan normativ manbalar strategik modelni ishlab chiqish uchun metodologik asosdan ko'ra, institutsional va maqsadli yo'nalish beruvchi poydevor vazifasini bajaradi.

Mahalliy pedagogik va metodik adabiyotlarda ta'lim tizimini rivojlantirish masalasi, asosan, ta'lim mazmuni, o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish hamda pedagog kadrlarni tayyorlash masalalari doirasida yoritilgan. Umumiy pedagogika va ta'lim nazariyasiga oid manbalarda ta'limning ijtimoiy funksiyasi, shaxsni har tomonlama rivojlantirishdagi o'rni, didaktik tamoyillar, ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari hamda boshqaruvning pedagogik asoslari tizimli ravishda bayon etiladi. Ushbu tadqiqotlar strategik modelning pedagogik komponentini chuqurroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ta'lim tizimidagi islohotlar qanday didaktik va tarbiyaviy natijalarga yo'naltirilishi lozimligini aniqlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda mahalliy ilmiy-metodik adabiyotlarda kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, muammoli ta'lim hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish masalalari keng ko'lamda tadqiq etilmoqda. Biroq ko'plab ishlarda alohida fan yoki muayyan ta'lim bosqichiga doir metodik masalalar ustuvorlik kasb etadi. Natijada ta'lim tizimining yaxlit strategik modeli doirasida mazmun, boshqaruv, kadrlar siyosati, monitoring, resurslar taqsimoti va raqamlashtirish komponentlarining o'zaro integratsiyasi masalasi yetarli darajada kompleks tahlil qilinmaganligi kuzatiladi. Bu holat mazkur tadqiqot yo'nalishining dolzarbligini yanada oshiradi va tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Ta'limni modernizatsiya qilish va strategik boshqaruvga oid xorijiy adabiyotlarda esa masalaga ko'proq tizimli va institutsional yondashuv asosida qaraladi. Ushbu manbalarda ta'lim tizimi samaradorligi strategik rejalashtirish, institutsional boshqaruv, maqsadli indikatorlar, sifat monitoringi, hisobdorlik (accountability), manfaatdor tomonlar hamkorligi va resurslarni oqilona boshqarish bilan uzviy bog'liqlikda tahlil etiladi. Xorijiy tadqiqotchilar ta'lim islohotlarining muvaffaqiyati faqat yangi dastur yoki texnologiyani joriy etish bilan cheklanmasligini, balki ularni boshqaruv tizimi, pedagog kadrlar kompetensiyasi, baholash mexanizmlari hamda



madaniy-institutsional muhit bilan uyg'unlashtirish orqali ta'minlanishini ilmiy asoslaydi. Shu jihatdan, mazkur tadqiqotlar milliy ta'lim tizimini yangilashning strategik modelini ishlab chiqishda muhim nazariy va metodologik yo'nalishlarni belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli va kompleks yondashuv asosida milliy ta'lim tizimini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar izchil tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasida ilmiy-abstrakt tafakkur, qiyosiy tahlil, modellashtirish va umumlashtirish usullaridan samarali foydalanildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar hamda mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar chuqur o'rganildi va tizimlashtirildi. Strategik modelning asosiy komponentlari o'zaro bog'liqlik va funksional uyg'unlikda ko'rib chiqildi hamda ularning ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligiga ta'siri nazariy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli ilmiy-nazariy hamda amaliy boshqaruv nuqtayi nazaridan kompleks ravishda tahlil qilindi. Tahlil doirasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga ta'sir etuvchi asosiy omillar – ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, kadrlar salohiyati, raqamli infratuzilma, institutsional boshqaruv, monitoring va baholash mexanizmlari, resurslar taqsimoti hamda manfaatdor tomonlar hamkorligi – o'zaro bog'liq yagona tizim sifatida ko'rib chiqildi. Olingan natijalar milliy ta'lim tizimini samarali yangilash alohida islohot choralari parchalangan holda joriy etish orqali emas, balki ularni yagona strategik model doirasida muvofiqlashtirish orqali yuqori natijadorlikka erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, strategik modelning eng muhim xususiyati uning integrativ xarakterga egaligidadir. Boshqacha aytganda, ta'lim tizimidagi sifat o'zgarishlari faqat bitta yo'nalishdagi yangilanish bilan emas, balki mazmun, metod, boshqaruv, kadrlar va baholash komponentlarining uyg'un rivoji natijasida yuzaga keladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim mazmuni kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilangan taqdirda ham, pedagoglar uni amaliyotga tatbiq etishga metodik jihatdan yetarli darajada tayyor bo'lmasa, kutilgan natijaga to'liq erishish qiyinlashadi. Xuddi shuningdek, raqamli vositalarni ta'lim jarayoniga joriy etish infratuzilma, pedagog kompetensiyasi va monitoring mexanizmlari bilan uzviy bog'lanmasa, ularning samaradorligi pasayishi mumkin. Demak, strategik modelning amaliy samaradorligi, avvalo, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi funksional uyg'unlik darajasi bilan belgilanadi.

Tahlil davomida strategik modelning maqsadli-konseptual asoslari ham alohida baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimini yangilashga doir strategik maqsadlar aniq, o'lchab bo'ladigan va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan shaklda belgilanganida, ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish samaradorligi ortadi. Umumiy va deklarativ xarakterdagi maqsadlar esa amaliy rejalashtirish jarayonida noaniqliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois samarali strategik modelda maqsadlar ta'lim sifati va natijadorligini oshirish, uzluksiz ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlash, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirish, boshqaruvning ochiqligi va hisobdorligini ta'minlash, ta'limda teng imkoniyatlar hamda inklyuzivlikni kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozim. Bu esa maqsadli-konseptual blokning aniqligi boshqa barcha komponentlarning samarali faoliyat yuritishi uchun metodologik asos yaratishini anglatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirish jarayonini alohida yo'nalishlar kesimida emas, balki o'zaro bog'liq strategik model asosida tashkil etish zarurligini tasdiqlaydi. Integrativ yondashuvning ustunligi shundan iboratki, ta'lim tizimidagi barqaror sifat o'zgarishlari faqat bitta komponentni takomillashtirish orqali emas, balki ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, kadrlar siyosati, raqamli transformatsiya, boshqaruv va monitoring mexanizmlarining uyg'unlashtirilgan rivoji orqali yuzaga keladi. Bu natija ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida kompleks va tizimli yondashuvni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash zarurligini ko'rsatadi.

Muhokama jarayonida strategik modelning integrativ xarakteri ta'lim sifati tushunchasini kengroq talqin qilish imkonini berishi qayd etildi. An'anaviy yondashuvda ta'lim sifati ko'pincha o'quvchilarning bilim natijalari yoki yakuniy baholari bilan baholanadi. Tadqiqot natijalari esa ta'lim sifatini ta'lim mazmunining dolzarbligi, pedagogning metodik tayyorgarligi, ta'lim muhitining raqamli va moddiy ta'minoti, boshqaruvning natijadorligi, monitoringning shaffofligi hamda manfaatdor tomonlar hamkorligi bilan uyg'unlikda baholash zarurligini asoslaydi. Demak, strategik model ta'lim sifatini ko'p komponentli ko'rsatkich sifatida talqin qilishga metodologik asos yaratadi va bu boshqaruv qarorlarini yanada asosli qabul qilish imkonini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarida ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilash strategik modelning markaziy bo'g'ini sifatida ajratilishi metodologik jihatdan asosli hisoblanadi. Bu holat milliy ta'lim tizimida "bilim berish" paradigmasidan "natija va kompetensiya shakllantirish" paradigmasiga bosqichma-bosqich o'tish

jarayonining ifodasidir. Shu bilan birga, kompetensiyaviy yondashuvni samarali joriy etish metodik ta'minotni takomillashtirish, darsliklar va baholash mezonlarini uyg'unlashtirish, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yanada mustahkamlash orqali qo'llab-quvvatlanishi lozim. Mazmuniy yangilanish nafaqat normativ hujjatlarda, balki dars jarayonining ichki mantiqida, topshiriqlar tuzilmasida va pedagogik muloqot madaniyatida ham o'z ifodasini topishi zarur.

Pedagog kadrlar salohiyati masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari strategik modelning muvaffaqiyati pedagogning kasbiy kompetensiyasi, innovatsiyalarga ochiqqligi va metodik moslashuvchanligiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Shu bois kadrlar siyosatini faqat malaka oshirish kurslari bilan cheklab qo'ymasdan, uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini shakllantirish, metodik hamjamiyatlarni rivojlantirish, mentorlik institutini mustahkamlash va refleksiv pedagogik madaniyatni kengaytirish zarur. Bunday yondashuv pedagogni islohotning faol subyekti sifatida namoyon etadi.

Raqamli transformatsiya masalasi ham kompleks yondashuvni talab etadi. Tadqiqot natijalari raqamlashtirish pedagogik maqsadlarga bo'ysundirilgan holda amalga oshirilgandagina yuqori samaradorlikka erishilishini ko'rsatdi. Aks holda, texnologik yangilanishlar yuzaki xarakter kasb etishi mumkin. Shu bois raqamli vositalarning samaradorligi ularning pedagogik dizaynga mosligi, metodik vazifalarni bajarish darajasi va baholash mexanizmlari bilan uyg'unligiga bog'liq. Demak, raqamli transformatsiyani ta'lim tizimining alohida texnik yo'nalishi sifatida emas, balki pedagogik, boshqaruv va kadrlar siyosati bilan uzviy bog'liq strategik komponent sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirish jarayoni alohida chora-tadbirlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topgan yagona strategik model asosida amalga oshirilgandagina barqaror va yuqori samarador natija berishini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, pedagog kadrlar salohiyati, raqamli transformatsiya, institutsional boshqaruv, monitoring va baholash tizimi, resurslar ta'minoti hamda manfaatdor tomonlar hamkorligi bir-biridan ajralgan yo'nalishlar emas, balki yagona rivojlanish mexanizmining o'zaro uyg'un tarkibiy qismlari ekanligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Shu jihatdan milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda integrativ, bosqichma-bosqich va natijadorlikka yo'naltirilgan yondashuv strategik ustuvor tamoyil sifatida qaralishi lozim.

Tahlil natijalari strategik model markazida ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida yangilash, xususan, kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga chuqur singdirish masalasi turishini tasdiqladi. Biroq mazmuniy yangilanishning o'zi yetarli emas, chunki uning real samarasi pedagoglarning metodik tayyorgarligi, innovatsiyalarga tayyorligi va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois ta'lim islohotlarida pedagog kadrlar salohiyatini oshirish qo'shimcha yo'nalish sifatida emas, balki strategik modelning hal qiluvchi sharti sifatida e'tirof etilishi zarur. Shuningdek, raqamli transformatsiya texnik vositalarni joriy etish bilan cheklanmay, pedagogik maqsadlar, metodik dizayn va monitoring tizimi bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilgandagina ta'lim sifatiga barqaror ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotda boshqaruv, monitoring va baholash tizimining strategik modeldagi o'rni ham muhim xulosa sifatida namoyon bo'ldi. Dalillarga asoslangan boshqaruv, aniq indikatorlar, muntazam tahlil va teskari aloqa mexanizmlarining mavjudligi ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, boshqaruv jarayonida faqat formal hisobotchilik bilan cheklanmasdan, miqdoriy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda sifat tahlilini ham kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Resurslar ta'minoti hamda institutsional hamkorlikning samarali yo'lga qo'yilishi esa strategik modelning barqaror ishlashini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etildi.

Milliy ta'lim tizimini samarali rivojlantirish maqsadida strategik model asosida integrativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarur. Ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilash bilan bir qatorda pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirish tizimini mustahkamlash lozim. Raqamli texnologiyalarni metodik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish, monitoring va baholash indikatorlarini aniqlashtirish hamda ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlikni kengaytirish strategik rivojlanishning muhim yo'nalishlari sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: PF-5847-son Farmon, 2019-yil 8-oktabr [Matn]. – Toshkent, 2019. <https://lex.uz/docs/-4545884>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: PF-6079-son Farmon, 2020-yil 5-oktabr [Matn]. – Toshkent, 2020. <https://lex.uz/uz/docs/-5030957>.



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: PF-6108-son Farmon, 2020-yil 6-noyabr [Matn]. – Toshkent, 2020. <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: PF-60-son Farmon, 2022-yil 28-yanvar [Matn]. – Toshkent, 2022. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida: PF-134-son Farmon, 2022-yil 11-may [Matn]. – Toshkent, 2022. <https://lex.uz/docs/-6008663>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida: PF-158-son Farmon, 2023-yil 11-sentabr [Matn]. – Toshkent, 2023. <https://lex.uz/docs/-6600413>.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida: 187-son Qaror, 2017-yil 6-aprel [Matn]. – Toshkent, 2017. <https://lex.uz/docs/-3153714>.
8. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi [Matn]. – Toshkent, amaldagi nashr.
9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bo'yicha metodik tavsiyalar hamda namunaviy o'quv dasturlar [Matn]. – Toshkent, amaldagi nashr.
10. Mavlonova, R. A. Umumiy pedagogika [Matn]. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.